

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.Maxmudova

Bakir Cho'ponzoda adabiy merosini o'rganishning o'zbek va Ozarbayjon xalqlari uchun pedagogik ahamiyati 6

F.O'.Toshboltayev

Integration of digital tools into the educational process 9

T.S.Aldasheva

"Etnomadaniyat" fani asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning metodik mazmuni 12

S. Sh.Abdullayev

Dasturlash fanini o'qitishning dasturiy-metodik ta'minotini takomillashtirish 16

I.M.Alimjonova

Kohlbergning axloqiy rivojlanish bosqichlari orqali til o'rganuvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish 21

A.H.Matyoqubova, X.X.Yuldashxodjayev

Turon teatr truppasi: o'zbek sahna san'atining shakllanishida ijtimoiy-ma'naviy omil 24

N.M.Ikromova, B.Isalayev

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida oliy ta'lim tizimi amalga oshirilgan islohotlar (1991-2000) 27

M.M.Mo'minova, T.V.Jo'rayev, M.M.Turdimatov

Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari ... 32

Q.B.Sobirjonov

Raqamli ta'lim tizimida ilmiy-pedagogik yonadshuv asosida ma'lumotlarni tahlil qilish 38

P.N.Toshmurodov, B.E.Xujanov

Molekulyar fizikaga oid masalalarni raqamli texnologiyalar yordamida yechish usullari 41

X.D.Muqimova

Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasi 46

X.N.Abduraxmonov

Tibbiy ta'limda diagnostik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ pedagogik strategiyalari: tibbiyot talabalari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot 49

I.I.Baxromova

Adaptiv platformalarning til o'rganishdagi imkoniyatlari 54

Y.D.Kambarova

Есть ли роль автономии студентов на занятиях esp? 58

T.D.Namozova, Sh.D.Jo'raboyeva

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kreativlik 63

Sh.N.Abdullaeva

Innovative approaches to teaching english as a foreign language: contemporary methodologies and digital integration 72

V.I.Xoldarova

Raqamli texnologiyalar asosida boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodlari 79

N.Z.Umarova

Chet tili o'qitish jarayonida sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirish usullari (poetik matnlar yordamida) 82

I.A.Tuychiyev

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun innovatsion harakat dasturlari va pedagog-mutaxassislarining kasbiy salohiyatini oshirish mexanizmlari 87

E.Muxtarov

So'navchi mexanik tebranishlarni raqamli texnologiyalar asosida interaktiv o'qitish metodikasi 92

B.S.Shermuhammadova

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari 100



UO'K:

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA KREATIVLIK**РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ ЧЕРЕЗ КРЕАТИВНОСТЬ****CREATIVITY IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE MUSIC TEACHERS**¹Namozova Dilorom Tursunovna¹ ¹Farg'ona davlat universiteti Musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrası dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD)²Jo'raboyeva Dilobarxon Sherali qizi² ²Musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrası o'qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kreativlikning o'рни va ahamiyati tadqiq etiladi. Maqolada kreativ fikrlash va ijodiy yondashuvlar orqali musiqa o'qituvchilarining kasbiy malakalarini yanada takomillashtirish yo'llari, metodik vositalar va amaliy mashg'ulotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchilarda kreativlikni rivojlantirish strategiyalari va ularning ta'lim jarayoniga ijobiy ta'siri ko'rsatib o'tiladi. Natijada, kreativlik bo'lakachilikni bartaraf etishda, shaxsiy va kasbiy rivojlanishda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi.

Аннотация

В статье рассматривается роль и значение креативности в развитии профессиональной компетентности будущих учителей музыки. Креативность позволяет педагогам внедрять инновационные подходы в образовательный процесс, что способствует повышению качества обучения. Анализируются методы и практические занятия, направленные на совершенствование профессиональных навыков учителей музыки через развитие творческого мышления и креативных подходов. Также обсуждаются стратегии развития креативности и её положительное влияние на образовательный процесс. В заключение подчеркивается важность креативности в преодолении рутинности и личностном и профессиональном росте педагогов.

Abstract

This article explores the role and significance of creativity in enhancing the professional competence of future music teachers. Creativity enables educators to implement innovative approaches in the teaching process, thereby improving the quality of education. The paper analyzes methods and practical activities aimed at improving the professional skills of music teachers through the development of creative thinking and innovative strategies. It also discusses strategies for fostering creativity and its positive impact on the educational process. In conclusion, the importance of creativity in overcoming routine tasks and promoting personal and professional growth is emphasized.

Kalit so'zlar: musiqa o'qituvchilari, kasbiy kompetentlik, kreativlik, pedagogik kreativlik, kasbiy rivojlanish, ta'lim sifati, innovatsion yondashuv, metodik vositalar, ijodiy fikrlash.

Ключевые слова: Учителя музыки, профессиональная компетентность, креативность, педагогическая креативность, профессиональное развитие, качество образования, инновационный подход, методические средства, творческое мышление.

Key words: Music teachers, professional competence, creativity, pedagogical creativity, professional development, education quality, innovative approach, methodological tools, creative thinking.

KIRISH

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, bo'lajak kadrlar tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqishni tadqiq etish muhim masalalardan biridir. Zero, "pedagogik ta'limning dolzarb ilmiy muammolari, shu jumladan, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, raqamli ta'lim texnologiyalari va ta'lim menejmenti

PEDAGOGIKA

yo'nalishlarida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, doktorantura ixtisosliklari bo'yicha yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash"¹, talabalar xususan, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish va mazkur vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim tizimining funktsiyalarini halqaro va milliy talablardan kelib chiqqan holda tadqiq qilib borish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak pedagoglar tayyorlash tizimini internatsionalizatsiyalash, innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish asosida bo'lajak o'qituvchilarni, xususan, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini metodik jihatdan yanada takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar, yangiliklar, muammolarni o'quv jarayonida topshiriqlar sifatida joriy qilinishi talabalarning bilimini mustahkamlaydi. Aynan ta'limning vazifasi turli metodlar, texnologiyalar bilan o'quv guruhlarida rasmiy holatda o'zgarishlar va muammolarni hal qilinishidir. Professor-o'qituvchi esa moderator vazifasini bajaradi va talabalarni yetarli ma'lumotlar, topshiriqlar bilan ta'minlab boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasida pedagogik ta'limni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar, *N.Azizxodjaeva, A.Aripdjanova, G.Ibragimova, N.Muslimov, O'.Tolipov, F.Exsonovalarning ilmiy-tadqiqot ishlari va o'quv qo'llanmalarida modernizatsiyalashgan ta'lim jarayonidainnovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim oluvchilarning kreativ ishlashga o'rgatish, ularda turli kompetentsiyalarni o'stirish jihatlarini tadqiq etilgan.* Shu bilan birga, kreativ yondashuv asosida musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalalarini T.M.Kargorolova, L.A.Nikitina, V.V.Baxtin, E.V.Smotrova, E.S.Borisova, G.V.Baybikova, V.R.Revalar tadqiq etishgan.

Xorijlik olimlardan J. A. Sloboda, F.Barrom, J.Guilford, Sh.Daly, B.Jonson, E.Mosyowski, D.Simonton, R.Sternberg, E.Torrance, S.Thaler, D.Weshsler tadqiqotlarida kreativlik tushunchasi mazmun-mohiyati va kreativlikni rivojlantirish omillari bo'yicha izlanishlar olib borgan. Ularning tadqiqot ishlarida kreativ shaxsning sifatleri, kreativ shaxsni shakllantirish va kompetentsiyaga asoslangan yondashuvning mohiyati, asosiy kompetentsiyalarni takomillashtirish muammolari xususida atroflicha fikr yuritilgan. Shuningdek, musiqiy ta'limni kreativ yondashuvlar asosida rivojlantirish muammolari borasida J.Abreu, E.Jaques-Dalsroze, musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha S.Orff, Z.Kodaly, M.Montessori, R.Steiner, N.Lebresht, E.Ansermet va H.Mooglar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan.

Pedagog olimi Sh.Omanqulova tomonidan o'z tadqiqotida Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini modulli o'qitish texnologiyalari asosida takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muammolari tahlil qilingan².

Olima B.Karamatova o'z tadqiqotida musiqiy-pedagogik ta'limni takomillashtirish, umumiy ta'lim maktabi yoshidagi o'quvchilarda milliy-musiqiy bilimlarga bo'lgan ma'naviy ehtiyoj ortib borayotgan hozirgi davrda qadimiy musiqiy qadriyatlarni maktab ta'lim-tarbiya amaliyotiga joriy etish muammolarini tahlil qilgan³.

Tadqiqot ishi doirasida quyidagi metodlardan foydalanilish mumkin:

Savol-javoblar metodi. Asarni o'rganib, fan bo'yicha ma'lum malakava ko'nikmalar hosil qilinganidan so'ng bu metodni qo'llash mumkin. Bunda talaba sinovdan o'tkaziladi. O'qituvchi bir necha muammoli va mavzuni o'zida aks ettiruvchi savollarni talabaga taqdim etadi. Mashg'ulot davomida u egallangan bilimlari asosida javob berishga intiladi. Shu asosda mavzuni mustahkamlash mumkin bo'ladi

Qisqacha bayon qilish va tushuntirib berish metodi. Xususan, yakka tartibda olib boriladigan darslar ma'ruza tarzida olib borilmaydi. Ayni paytda talabaga beriladigan bilimlarni qisqa, lo'nda bayon qilib berish hamda uning ma'lum bir qismini didaktik jihatdan aniq tushuntirib

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi "Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 415-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7014313>.

² Omanqulova Sh. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini modulli o'qitish texnologiyalari asosida kasbiy kompetentligini takomillashtirish. Diss. Samarqand, 2022. 9-b.

³ Караматова Б.М. Педагогические основы использования музыкального наследия мыслителей Среднего Востока в учебно – воспитательном процессе школы (на примере уроков музыки): - Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Т.: 2000. – 19 с.

berish lozim bo'ladi. Darsda sergaplik va uzundan-uzoq bayon qilib berishlik, o'tiladigan dars vaqtini tejashga imkon bermaydi. Bunda talabani mavzuni anglab olish, idrok eta olish qobiliyatini hisobga olish zarur bo'ladi. Darsda talabaga singdiriladigan didaktiv materiallar bir qancha turkumlarga, bo'laklarga bo'lib o'rgatilsa, har bir bo'lak singdirilgandan so'nggina ularni yaxlitlashtirishga o'tish, berilayotgan fikrni talabani yaxshi anglay olishiga imkon beradi.

Shaxsiy namuna metodi. Har bir fan bo'yicha beriladigan didaktik bilimlarni, materiallarni talabani puxta egallab olishida shaxsiy namuna muhim rol o'ynaydi. Ma'lum cholg'u sozida kichik bir musiqiy matnni o'qituvchining o'zi mahorat bilan ko'rsatib bera olsa, talaba unga ergashgan holda shu iborani o'rganishga kirishadi. Masalan, o'qituvchi cholg'uchilik bo'yicha shu bir parchada nola yoki qochirim ishlatib chalishni ko'rsatib bera olsa, talabada ham aynan shunday bezakni o'rganib olishga, uni takrorlashga ishtiyoq uyg'onadi va shu intilish o'z bezagini o'z barmoqlari yordamida chiqara olishga bo'lgan harakatlariga asos bo'ladi. Bunda «O'n marta eshitgandan, bir marta ko'rgan yaxshi» qabilida ish tutish foydadan holi bo'lmaydi. Ayni paytda shaxsiy namunaga ko'p vaqt berib, talabani imkoniyatini cheklab qo'yishdan ham ehtiyot bo'lish darkor. Bunda talabani o'qituvchi nazorati ostida ma'lum shtrixni, bezakni qayta-qayta takrorlab, o'zi mustaqil egallab olishiga yetralicha sharoit yaratib berishi lozim.

Ijro namunalaridan foydalanish metodi. Yakka darslar jarayonida bu metoddan foydalanish, ayniqsa, muhimdir. Ma'lum bir asarni yuksak mahorat egasi bo'lgan sozanda yoki xonandalar ijrosida talabaga eshittirish, asarni puxta egallab olishda muhim rol o'ynaydi. Masalan: «Mumtoz qo'shiqchilik»ni talabalarga o'rgatish jarayonida bunday namuna usulidan foydalanish, ayniqsa, qo'l keladi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Nazariy tadqiqotlar natijasida aniqlangan ilmiy yechimlar asosida metodik qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqildi, ular asosida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Mazkur tadqiqot ishi doirasida oliy musiqiy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda "Musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va kreativligi" fanini o'qitish va shu asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini musiqiy ta'lim-tarbiya jarayoniga tayyorlash, musiqiy va pedagogik jarayonni uyg'un hola tushunish va bu boradagi bilim hamda ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa ekanligi aniqlandi.

Shuning uchun ham, tadqiqot ishining ilmiy farazi asosida "Musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va kreativligi" fanini tanlov fan sifatida kiritish va bu fanning metodik imkoniyatlarini yaratish, modernizatsiyalash asosida sekin-asta majburiy fan sifatida o'tilishiga erishishga qaratilgan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqildi.

"Musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va kreativligi" fanini o'qishda fanni nazariy va amaliy faoliyatni o'zlashtirish jarayonida, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tasvirlab berish, musiqiy ta'lim-tarbiya berishda kasbiy kompetensiyaviy yondashuvi va ish faoliyatiga kreativ yondashishga qo'yilgan talablarga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning nazariy hamda metodologik asosi hamda o'rganiladigan muammolari bayon etiladi.

Shu ma'noda, "Musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va kreativligi" fanining asosiy maqsadi bo'lajak musiqa o'qituvchilarni musiqiy ijodkorligini shakllantirish va musiqiy pedagogik kreativligini rivojlantirishdan iboratdir.

Musiqa ta'limi sohasida o'qituvchi roli juda muhimdir. Musiqa o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki talabalarning ijodiy rivojlanishiga hissa qo'shuvchi shaxsdir. Ularning kasbiy kompetentligi va kreativligi esa ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli davom etishida asosiy omillardan biridir.

Birinchidan, musiqiy kompetentlik o'qituvchining professional bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini o'z ichiga oladi. Bu, musiqa nazariyasi, tarix, asbob chalish texnikasi va vokal san'ati kabi sohalarda chuqur bilimga ega bo'lishni talab qiladi. O'qituvchi, shuningdek, turli musiqiy janrlar va uslublarni tushunishi ham zarur. Bu bilan u talabalarga keng qamrovli musiqa dunyosini ochib beradi.

Ikkinchidan, musiqiy kreativlik o'qituvchining ijodkorligini ko'rsatadi. Kreativlik – bu yangi g'oyalar yaratish, mavjud materiallarni yangicha talqin qilish va ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish qobiliyatidir. Musiqani o'rganishda yangi yondashuvlarni qo'llash orqali

PEDAGOGIKA

o'qituvchi talabalarning qiziqishini oshiradi va ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Misol uchun, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali interaktiv darslar o'tkazish yoki musiqiy loyihalar tashkil etish orqali o'zlashtirish jarayonini yanada qiziqarli qilish mumkin. Shuningdek, musiqaning hissiyotlar ifodasi sifatida ahamiyatini e'tiborga olish lozim. O'qituvchi talabalarni musiqa orqali his-tuyg'ularni ifodalashga undashi kerak. Bu esa ularning emotsional intellektini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa darslarida talabalar bir-birlarini tinglashni, fikr almashishni va hamkorlikda ishlashni o'rganadilar.

Yana bir muhim jihat – bu musiqaga bo'lgan muhabbat va ehtirosdir. O'qituvchi o'z ishi bilan birga talabalarga musiqa san'atining go'zalligini yetkazishi kerak. Ularning ishiga bo'lgan munosabati va motivatsiyasi talabalarni ilhomlantirib, ularni musiqa bilan yanada chuqurroq tanishtirishga yordam beradi. Demak, musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va kreativligi ichki uyg'unlikda bo'lishi zarurdir. Bu ikki jihat birgalikda ishlaganda ta'lim jarayoni samarali va unutilmas bo'ladi. Yana eng muhimi – yaxshi musiqa o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi emas, balki yosh avlodning ijodkorligini rivojlantiruvchi murabbiydir.

Musiqa ta'limi, nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki shaxsiy rivojlanish va ijodiy fikrlashni rag'batlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Musiqa o'qituvchisi esa bu jarayonda markaziy rol o'ynaydi. Uning kasbiy kompetentligi va kreativligi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlaydi.

Birinchidan, musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini oshirish orqali talabalarni musiqiy bilimlar bilan ta'minlashdir. O'qituvchi nafaqat musiqa nazariyasi va amaliyoti bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, balki turli uslublar va janrlarda ham tajribaga ega bo'lishi kerak. Bu talabalar uchun keng ko'lami musiqiy tajribani taqdim etishga yordam beradi.

Ikkinchidan, o'qituvchining kreativligi orqali talabalar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Musiqa darslari doirasida ijodiy yondashuvlarni qo'llash orqali o'qituvchi talabalarni yangi g'oyalar bilan tanishtirishi, ularni o'z his-tuyg'ularini ifoda etishga undashi mumkin. Bu esa talabalarning ijodkorlik qobiliyatini oshiradi. Buning uchun esa,

–bo'lajak musiqa o'qituvchisi doimiy ravishda yangi metodologiyalarni o'zlashtirib borishi zarur. Bu malaka yangiliklarga ochiq bo'lishni va zamonaviy ta'lim tendensiyalarini hisobga olishni talab qiladi.

–har bir talabaning yoshiga, qobiliyatiga va qiziqishlariga mos yondoshuvni tanlash, ularning musiqaga bo'lgan ishtiyoqini oshirishda muhimdir.

–darslarda interaktiv usullarni qo'llash, musiqiy eksperimentlar o'tkazish va talabalarga o'z ijodlarini namoyish etish imkoniyatlarini yaratish lozim.

–o'qituvchi musiqa pedagogikasida yangi tadqiqotlarni olib borishi va ulardan foydalanishi zarur. Bu yangi g'oyalarni kiritishga yordam beradi.

–boshqa fan o'qituvchilari bilan hamkorlik qilib, interfaol darslar tashkil etish talabalarning qiziqishini yanada oshiradi.

Natijada, musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va kreativligi nafaqat uning shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi, balki talabalar uchun samarali va ilhomlantiruvchi muhit yaratadi. Ushbu jarayonda har bir o'qituvchi o'z vazifasini mukammal bajarishga intilishi kerakki, bu nafaqat musiqaning go'zalligini tarannum etadi, balki kelajak avlodning ijodkorligini shakllantiradi.

“Musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va kreativligi” fanining ma'ruza mashg'ulotlari uchun taklif qilinayotgan taqvim mavzu-rejasi

No	Mavzular	Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar
1- mavzu.	“Musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va kreativligi” fanini o'qitishning maqsadi va vazifalari	Musiqa madaniyati o'qituvchisining musiqiy pedagogik mahorati tarkibi o'z ichiga badiiy musiqa va ijodiy qobiliyatni oladi: Musiqa madaniyati o'qituvchi pedagogik ijodkorligi, o'quv tarbiyaviy vazifalarni yechishga qobiliyatli bo'lishi, pedagogik texnologiya haqida tushunchaga ega bo'lish.
2- mavzu.	“Musiqa o'qituvchisining shaxsiy kompetentligi va kreativligi” fanini o'qitishning nazariy	Musiqa madaniyati o'qituvchisi-rejisyor, aktyor, musiqiy badiiy pedagogika metod va prinsiplari, o'quvchilarni musiqiy ta'limni o'rganishida yangi pedagogik texnologiyalarni asosiy jarayonlari,

	masalalari	muloqot jarayonini tashkil etish, musiqiy muloqotlar-musiqqa o'qituvchi o'quvchi musiqiy muloqotlarni tashkil etishning har xil shakllari.
3-mavzu.	Musiqqa o'qituvchisining asosiy kompetentsiyalari	Asosiy kompetentsiyalar: Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetentsiyasi. O'zini-o'zi rivojlantirish va asrash kompetentsiyasi. Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetentsiyasi.
4-mavzu.	Uzluksiz ta'limda musiqqa o'qituvchisining shaxsiy kompetentligi va kreativligi	Musiqiy ta'lim jarayonida zamonaviy interfaol uslublar bilan talabalar bilimni chuqurlashtirish va kengaytirish, ilmiy qidiruv va nazariy sifatlari shakllantiriladi. Natijaga erishish uchun mavzuga interfaol uslublarni tanlash
5-mavzu.	Interfaol ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish mohiyati	Musiqqa o'qituvchisi–Pedagog –madaniyatli tinglovchi, musiqqa san'atini qadrllovchi va tanqid qiluvchi. Musiqqa qabul qilishni tashkil etish muammolari va musiqiy asarlarni badiiy tahlil etish. Pedagogik tahlil etish (Tinglovchida musiqiy tovushlarni tasavvur etish, musiqiy asarlarni janrlarini tahlil etish) Musiqiy san'atni butunligicha qabul etishga rivojlantirish. Musiqiy san'atni mazmunida shaxsni ahloqiy estetik shakllantirish o'quvchilarda tinglash madaniyatini shakllantirish.
6-mavzu.	Musiqqa madaniyati darslarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishga kreativ yondashuv	“Pedagog – musiqachi, ijrochi, ijodkor”. O'qituvchi va o'quvchining ijodi pedagogik ta'sirini yo'naltirish natijasidir. O'quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishda tayyorgarliksiz she'r, kuy, musiqali ohang ijod etish. O'quvchilarni mustaqil tayyorlashda malaka ko'nikmalarni shakllantirish.
7-mavzu.	O'qituvchi bilan o'quvchilarning hamkorligi	Musiqqa o'qituvchisi “pedagog–psixolog”: shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro al oqalar, shaxsni kamol toptirishda tarbiya va rivojlanishning o'zaro bog'liqligi, musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish muammolari. Musiqiy qobiliyatlarni diagnostikasi. Musiqiy qobiliyati rivojlanmagan o'quvchilar bilan ish uslubi va muammolari.
8-mavzu.	An'anaviy darslar tashkil etishga kreativ yondashuv	Maktabda an'anaviy darslar tashkil etish faoliyatini shakllantirishda kompetensiyaviy-kreativ yondashuvlarni amalga oshirish.
9-mavzu.	Noan'anaviy darslar tashkil etishga kreativ yondashuv	Maktabda noan'anaviy darslar tashkil etish faoliyatini shakllantirishda kompetensiyaviy-kreativ yondashuvlarni amalga oshirish. Darsdan tashqari ishning pedagogik asoslari, maktab va maktabdan tashqari ta'lim, darsdan tashqari ishlar tizimi va amaliyoti.
10-mavzu.	Kasbiy kompetensiyaning tarkibiy elementlari	Kompetensiyalarning tarkibiy elementlari: Asosiy kompetensiyalar: Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi. O'zini-o'zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi. Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi
11-mavzu.	Musiqiy faoliyatlarni olib borishda kreativ yondashuv	Musiqqa madaniyati fani bo'yicha 1-4-sinf o'quvchilariga qo'yiladigan talablar. Musiqqa madaniyati fani bo'yicha 5-7-sinf o'quvchilariga qo'yiladigan talablar. O'qitish jarayonida asosiy kompetentsiyalarni rejalashtirish va rivojlantirish.

PEDAGOGIKA

		Musiqiy faoliyatlarni olib borishda kreativ yondashuv
12-mavzu.	Musika o'qitish tamoyillarining zamonaviy tarzda tashkil etish yo'llari	Mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiluvchi uzluksiz ta'lim mazmunini yangilash, o'qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zarurati, ta'lim sifatini oshirishga, ta'lim bosqichlarining o'zaro uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash bo'yicha qator chora-tadbirlar
13-mavzu.	Musika madaniyati darslarida ko'rgazmalilik tamoyiliga kreativ yondashuv	Musika madaniyati darslarida ko'rgazmalilikdan foydalanish. Ko'rgazmali metodlar, ta'lim jarayonida qo'llash, ko'rgazmali qurollar va texnika vositalari va barcha o'quv materialini o'zlashtirish shakllari
14-mavzu.	Kreativlikni muayyan bosqichlarda izchil shakllantirish va rivojlantirilish omillari	Shaxsning kreativligi, uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.
15-mavzu.	O'qituvchining musika darsiga kreativ munosabatini rivojlantirish muammolari	Yosh avlodni ijodiy fikrlashga o'rgatishning yangi va samarali yo'llarini izlab topish faqat o'qitish metodikasi sohasi taraqqiyoti uchun emas, barkamol shaxs tarbiyasini amalga oshirishda ham muhim ahamiyatga egadir. ijodkorlikni shakllantirish uchun bolalarning bilimni anglab o'tish imkoniyatlarini rejalashtirib turli ilmiy axborotlardan to'g'ri xulosa chiqarib olishga o'rgatish jarayoni muhim.

Yakunlovchi tajriba bosqichida bo'lajak musika o'qituvchilarida tanlangan fan doirasida kreativ kompetentsiyani rivojlantirishda nazariy materiallarni amaliy faoliyat bilan birgalikda olib borish metodikasi qo'llanilgandan keyingi holati aniqlandi. Bo'lajak musika o'qituvchilarida kreativ kompetentsiyani rivojlanganligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

Tajriba-sinov ishlari yuqoridagi uch bosqichda o'tkazildi va har bir bosqichda belgilangan vazifalar amalga oshirildi. Xususan, shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichida dars va darsdan tashqari (mustaqil ta'lim) jarayonlarda mashg'ulotlar tashkil etildi, tadqiqot natijalari amaliyotga tatbiq qilindi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida bo'lajak musika o'qituvchilarining kreativ kompetentsiyasini rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishilganligi matematik-statistik metodlar orqali tasdiqlandi.

Tadqiqot ishi davomida olingan materiallarning reprezentativligini ta'minlovchi quyidagi asosiy usullardan foydalanildi:

- nazariy tadqiqot usullari (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, induktsiya, deduktsiya va boshq).
- empirik tadqiqot usullari (kuzatish, suhbat, anketa, ekspert baholash, faoliyat natijalarini o'rganish, intervyu, pedagogik eksperiment va boshqalar).
- materiallarga matematik va statistik ishlov berish usullari.

Nazariy usullar bilan bog'liq bo'lgan ayrim jihatlariga quyida yanada mufassal to'xtalamiz. Jumladan, aloqalarni va pedagogik hodisalar qonuniyatlarini ochib berish uchun, ularning mohiyatini aniqlash uchun tadqiqot natijasida olingan dalillar nazariy tahlil qilindi. Nazariy tahlilning yetakchi roli shundan iboratki, nazariy tahlil mavjud dalillarni, shuningdek, zamonaviy shart-sharoit bilan bog'liq bo'lgan dalillarini aniqlashga ham imkon beradi.

Tadqiqotda taqqoslash pedagogik ilmiy-tadqiqot metodi sifatida juda keng qo'llanildi. Taqqoslashning mohiyati pedagogik shart-sharoitlarni, situativ o'qitish shakllarining ta'sirini, o'qitish, tarbiyalash, shaxs sifatlarining rivojlanish vositalarini o'rganishda, ko'nikma va

malakalarning shakllanishida, bilimlarni o'zlashtirishda o'xshashlik va farqlarni aniqlashda ifodalanadi.

Empirik usullar ham tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan, kuzatish – bu hodisalarni maqsadga yo'naltirilgan va rejali idrok qilish bo'lib, ularning natijalari kuzatish orqali qayd etiladi.

Bizning tajriba-sinov ishimizda kuzatishning u yoki bu turini tanlash, avvalo, natijaning samaradorligi bilan asoslanadi.

Suhbat – avvaldan tayyorlangan va maxsus tuzilgan dastur bo'yicha shaxsiy muloqot jarayonida dalillarni to'plash usuli. Mazkur usul tadqiqot boshlanayotganda, boshqa uslublar bilan olingan tadqiqot natijalariga qo'shimcha ma'lumotlarni olish zarurati yuzaga kelganda, tadqiqot o'tkazish jarayonida boshqa uslublar bilan qamrab olinmagan, tadqiqotning boshqa tomonlarini o'rganishda keng foydalaniladi. Tadqiqot doirasida bo'lajak musiqa o'qituvchilari va shuningdek, professor-o'qituvchilar bilan suhbat o'tkazish usullari qo'llanildi.

Tadqiqotlarimiz davomida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari ishtirokchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishni ifodalaydi va o'z-o'zini tashkil etish hamda guruhga ajratilgan hollardagi o'ziga xos ijodkorlik faoliyati, guruh ishtirokchilarining qo'yilgan maqsadga erishish uchun motivatsiyalarini oshirish orqali kompetensiyasi rivojlangan bo'lajak musiqa o'qituvchilari ajratib olindi. Egallangan ijodiy pedagogik tajriba asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarida pedagogik faoliyatga motivatsiya va kasbga yo'nalganlik kompetensiyalari mustahkamlanadi.

Kreativlik bo'yicha tuzilgan dasturning har bir pog'onasida pedagogik faoliyat jarayonida o'quv jarayonida va o'quv jarayonidan tashqari ishlarda kommunikativ, tashkiliy va instrumental kompetensiyalarning mustahkamlanishi sodir bo'ldi. Kreativ kompetensiya egalari o'zlarining pedagogik jarayonga tez kirishadigan va turli sharoitlarga moslasha oladigan, murakkab vaziyatlarda yechim topadigan va kattaligi bo'yicha turli guruhlar bilan o'zaro to'g'ri munosabatda bo'la olishlarini ko'rsatdilar. Kreativ kompetensiya rivojlanishining muvaffaqiyatlilik nisbatini aniq ko'rsatish uchun tadqiqotning tajriba-sinov bosqichida dasturning boshida va oxirida guruhlar bo'yicha natijalar qiyosiy tahlil qilindi.

Tajriba maydonlari sifatida pedagogik fanlarni o'qitishda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlanish jarayoni tanlab olinib, tanlab olingan ob'ektlarda jami 467 nafar bo'lajak musiqa o'qituvchilari (Farg'ona davlat universiteti-147, Andijon davlat universiteti-146 va Qarshi davlat universiteti -174 nafar) tajriba-sinov ishlarida respondent sifatida ishtirok etdi.

Biz quyidagi mezon va ko'rsatkichlarga tayangan holatda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha samaradorlik darajasini aniqladik: pertseptual – (axborotni idrok etish bilan bog'liq): diqqatni jamlashning g'ayriodatiy qobiliyati, idrok, katta taassurot; xarakterli – o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, o'z faoliyatini yuqori tashkil etish; innovativ – faol harakat, nostandartlik, innovatsion, tasavvur, ijodiy fikrlash, yetakchilik, ijtimoiylashuv, faol o'rganish, yangi vaziyatlarga moslashish qobiliyati; intellektual – yangi tushunchalarni idrok etish qobiliyati, tajribaga asoslangan o'rganish, mavhum tushunchalarni tushunish va qo'llash, o'z bilimlaridan maqsadli foydalanish, sezgi, kuchli tasavvur, ixtiro, bashorat in'omi, bilimning kengligi; effektiv – istalgan natijaga erishish, yuqori samaradorlik, murakkab vaziyatlarda ham eng mukammal bo'lgan amaliy ishni tashkil etish, unga moslashish.

Tajriba sinov ishlari 3 bosqichda amalga oshirildi: aniqlovchi, shakllantiruvchi hamda yakunlovchi tajriba bosqichlari. Yakunlovchi bosqichida bo'lajak musiqa o'qituvchilrida kreativ kompetensiyani rivojlantirishda nazariy materiallarni amaliy faoliyat bilan birgalikda olib borish metodikasi qo'llanilgandan keyingi holati aniqlandi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kreativ kompetensiyani rivojlanganligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

XULOSA

Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari tahlili va yakunlariga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Kreativlik atamasini o'rganish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilgan va bu izlanishlar nazariy-amaliy jihatdan ma'lum natijalarga olib kelgan bo'lsa-da, kreativlikning yagona va izchil nazariyasi hali ham mavjud emas, ya'ni ko'p tadqiqotchi-olimlar tomonidan turli xil ta'riflar va qarashlar mavjudligi kelib chiqadi.

PEDAGOGIKA

2. Hozirgi vaqtda pedagogik faoliyatga qo'yilayotgan talablar yaratilgan malaka talablarining tizimli-faoliyatli yondashuvdan yangicha, kompetent yondashuv asosida tuzilishiga erishish shartini qo'ymoqda. Zamonaviy jamiyatda ma'lum tizimga asoslangan yoki aniq me'yorlar bilan belgilab qo'yilgan sharoitda shaxs o'zini kreativ jihatlarini rivojlantira olmaydi. Shu ma'noda shaxsda kreativ sifatlar namoyon bo'lishi uchun yangicha muhit, yetarlicha e'tibor va munosabat lozim. Bu esa ta'limga kompetentli yondashuvni tatbiq etishni taqazo etadi.

3. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kreativ kompetentlikni rivojlantirish uchun ularda avvalo ijodkorlikka ehtiyojni shakllantirish, ularda ijodiy ehtiyojni anglashlariga imkon berish, ta'sir ko'rsatish va bu jarayonga qaratilgan ijodiy faoliyatni va unga ta'sir etuvchi muhitni yaratish talab etiladi. Umuman olganda, har bir inson hayotida ehtiyoj bilan qobiliyat uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

4. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kreativlik sifatlarini tarbiyalash oliy ta'limning muhim pedagogik vazifalaridan bo'lib, uni talabalarning nostandart va noodatiy fikrlashi, har qanday muammoli vaziyatga tayyor turishi va boshqalarga nisbatan eng mukammal natijani ko'rsatishi hamda ta'lim jarayoni ishtirokchisi sifatida yangi g'oyalarni yaratishga qaratilgan faoliyati sifatida tavsiflash mumkin. U talaba shaxsining ma'lum yo'nalishda bilimlarni o'rganish va egallagan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini tizimlashtira olish, amaliy faoliyatida muvaffaqiyatga yetaklovchi tarzda qo'llay bilishga yo'naltirilgan tayyorgarligi bo'lmish kompetentsiya bilan uyg'unlashgandagina zamon talablariga mos kadrlar yetishib chiqadi.

5. Zamonaviy ta'lim tizimi o'z oldiga shaxsning o'z shaxsiy mustaqilligi, erkinligi, kreativligi, kompetentligi sifatini shakllantirishni asosiy vazifa qilib qo'ygan pallada, reproduktiv o'qitish strategiyasidan voz kechishi kerakligini, bunda ta'lim standartlariga mos keluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga olgan holda o'quv rejada belgilangan fanlarni tashkil etishda o'quv loyihalaridan foydalanishni nazarda tutadi.

6. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kreativ kompetentsiyani rivojlantirish metodikasiga yo'naltirilgan o'qitish tizimini zamon talablari asosida takomillashtirilgan modeli bu borada nazariya va amaliyotning birligi, pedagogik faoliyatga muvofiqligi bilan tajriba-sinov ishlari davomida o'z tasdig'ini topdi.

7. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kreativ kompetentsiyani rivojlantirish – professor-o'qituvchidan ta'lim-tarbiya jarayoniga ijodkorona yondashishni talab etuvchi, innovatsion g'oyalarni izlab topish va amalga oshirish, nostandart vaziyatlarga moslashtirish va talabalarda topshiriqlarni bajarishga nisbatan tezkorlik, aniqlik, betakrorlik, o'z-o'zini nazorat qilish, tashqi ta'sirlarga o'zining shaxsiy fikri bilan qarshi tura olish xususiyatlarini tarkib toptirishga yo'naltirilgan tizimli jarayoni ekanligi kelib chiqadi.

8. Bo'lajak musiqas o'qituvchilarida kreativ kompetentsiyani rivojlantirish darajasini aniqlashda improvizatsiya, yangi g'oyalar bilan tashabbus ko'rsatish, nostandart tafakkur va tashabbuskorlik ko'nikmalarining shakllanganligi; ijodiylik, originallik, kutilmagan vaziyatlarga ijobiy munosabati, mustaqillik; kreativlikka moyillik, ijodkorlik, yaratuvchanlik va mukammallikka erishish istagining mavjudligi; maqsad yo'lida harakat va o'rgangan, bilgan bilimlarini amaliy faoliyatda muvaffaqiyatli qo'llay olish; yangi raqamli davrda o'zi va jamiyat uchun munosib, manfaatli o'rinni egallash yo'lidagi ijodiy faoliyati kabi mezonlarga va xususiyatlarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ishi doirasida quyidagi tavsiyalar berildi:

1. Oliy pedagogik (musiqas) ta'limidagi o'quv fani dasturlarida, asosan, talabalar egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar keltirilgan bo'lib, unda kreativ kompetentlikni rivojlantirishga doir mavzularni kiritish va bu jarayonda integrativ yondashuvlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

2. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kreativ kompetentsiyani rivojlantirishda mustaqil ta'limning rolini oshirish, ijodiy loyihalarni bajarishga qartilgan kreativ yondashuvlarni ishlab chiqish, ijodiy loyihalarga qo'yiladigan didaktik talablar va baholash mezonlariga tavsiyalar ishlab chiqish;

3. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kreativ kompetentsiyani rivojlantirishda pedagogik amaliyotning ahamiyatini kuchaytirish.

4. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kreativ kompetentsiyani rivojlantirishga hizmat qiluvchi yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish, bu jarayonda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish, tarjima asarlarni chop etish imkoniyatlarini oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

5. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kasbiy kompetentsiyalarni yana ham rivojlantirish uchun, ularga qo'yilgan talablarni zamon talablaridan hamda kasbiy talablardan kelib chiqib yangitdan yaratish zarurati bor. Buning uchun bizning tadqiqotimiz natijalaridan kelib chiqib ayrim tavsiya hamda yangiliklarimizdan foydalanish mumkin deb o'ylaymiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / – Т.: Сано стандарт, 2015.
2. Нишанова З.Т. Мустиқил ижодий фикрлашни ривожлантиришнинг психологик асослари: псих. фан. доктори ...дисс. Т.: 2005. – Б. 97-98.
3. Новоселов С. А. Педагогическая система развития технического творчества в учреждении профессионального образования: дис. 13.00.01 д-ра пед. наук. – Екатеринбург: 1997. – 386 с.
4. Новейший словарь иностранных словивыражений. -Мн.: Харвест. –М.: ООО "ИздательствоАСТ", 2001. – С.202.
5. Оманкулова Ш. Бўлажак мусиқа таълими ўқитувчиларини модулли ўқитиш технологиялари асосида касбий компетентлигини такомиллаштириш. дисс-я. Самарқанд 2022.154-б.
6. Оманкулова Ш. Н. Бўлажак мусиқа таълими ўқитувчиларини модулли ўқитиш технологиялари асосида касбий компетентлигини такомиллаштириш «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў» илмий методик журнал №3-2, -Нөкис., — 2020. -Б. 16-22
7. Панжиев Қ, Азизов Р. Эстрада кўшиқчилиги ёшларни тарбиялашнинг маънавий воситаси сифатида. Замонавий таълим. 2018. №7. –Б. 12.
8. Пак Ын Сук. Развитие творческой активности обучающихся в музыкальных образовательных учреждениях Республики Корея. Автореферат дисс канд. пед. наук. Москва, 2018. – 5 с.
9. Шумовская А.Г. Формирование креативной компетентности будущего педагога в научном сотворчестве: автореф. дисс. канд. пед. наук: – Чита: 2013. – С. 23.
10. Щербакова Е.Е. Формирование педагогической креативности студентов вуза в условиях профессиональной подготовки: автореф. дисс. канд. пед. наук: Нижний Новгород: 2000. – С. 21.